

TARJIMA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA GAMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

Begnazarova Indira Nurmurat qizi

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti talabasi

indirabegnazarova@gmail.com

[Tel: +998935103523](tel:+998935103523)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarjima ko'nikmalarini rivojlantirishda gamifikatsiya texnologiyalarining ahamiyati, afzalliklari hamda qo'llanilishi tahlil qilingan. Gamifikatsiya elementlaridan foydalanish dars jarayonini motivatsion, qiziqarli va samarali qilishi haqida so'z yuritilgan. Maqolada tarjima mashg'ulotlarida foydalanish mumkin bo'lgan gamifikatsiya metodlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, bunday metodlardan foydalanish o'quvchilarning chet tilida erkin muloqot qilishiga yordam berishi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *gamifikatsiya texnologiyalari, tarjima kompetensiyalari, motivatsiya, HMH Classcraft, metodlar, Kahoot-based vocabulary, Wordwall, Quizlet, Blooket o'yinlari, Duolingo, Memrise, analitik fikrlash*

GAMIFICATION TECHNOLOGIES IN DEVELOPING TRANSLATION SKILLS

Abstract. *This article analyzes the significance, advantages, and application of gamification technologies in developing translation skills. It discusses how the use of gamification elements can make the learning process more motivating, engaging, and effective. The article also provides information about gamification methods that can be used during translation classes. In addition, it emphasizes that the use of such methods helps learners communicate freely in a foreign language.*

Keywords: *gamification technologies, translation competencies, motivation, HMH Classcraft, methods, Kahoot-based vocabulary, Wordwall, Quizlet, Blooket games, Duolingo, Memrise, analytical thinking.*

ТЕХНОЛОГИИ ГЕЙМИФИКАЦИИ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ПЕРЕВОДА

Аннотация: *В данной статье проанализированы значение, преимущества и применение технологий геймификации в развитии переводческих навыков. В ней рассматривается, как использование элементов геймификации делает учебный процесс более мотивирующим, интересным и эффективным. В статье также представлена информация о методах геймификации, которые можно использовать на занятиях по переводу. Кроме того, подчёркивается, что применение таких методов способствует свободному общению учащихся на иностранном языке.*

Ключевые слова: *технологии геймификации, переводческие компетенции, мотивация, HMH Classcraft, методы, словарные задания на основе Kahoot, Wordwall, Quizlet, игры Blooket, Duolingo, Memrise, аналитическое мышление.*

Kirish

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda ta'lim jarayonini takomillashtirish, uni yanada samarali, qiziqarli qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, tarjima ko'nikmalarini rivojlantirishda an'anaviy mashg'ulotlar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi yaxshi samara berayotgani kuzatilmoqda. Shunday yondashuvlardan biri — gamifikatsiya texnologiyalaridir. Gamifikatsiya — ta'limda har xil o'yinlar tashkil qilish orqali motivatsiyani oshirish, o'quvchini faollashtirish va darsni qiziqarli, esda qolarli tarzda o'tkazishga xizmat qiladigan texnologiya hisoblanadi. Tarjima o'rgatishda

gamifikatsiya ayniqsa muhim, chunki tarjima jarayoni murakkab, analitik fikrlash, kontekst tushunish, lingvokulturologik bilim va grammatik kompetensiyalarni talab qiladi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya texnologiyalari orqali chet tili va tarjima fanlarini o'qitish jarayonida talabalar terminlarni va til birliklarini chuqurroq o'zlashtiradi, murakkab matnlarni tezroq tahlil qilishni o'rganadi va tarjima strategiyalarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Gamifikatsiya tushunchasi dastlab 2002-yilda N. Pelling tomonidan ilgari surilgan. Keyinchalik bu atama o'yin mexanizmlarini

o'yin bo'lmagan sohalarda qo'llash degan ma'noda keng tarqaldi.

Gamifikatsiya quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

1. So'z boyligini oshirish (Quizlet, Wordwall orqali interaktiv kartochkalar yordamida).
2. Grammatikani o'rganish (Kahoot testlari, Blooket o'yinlari orqali).
3. Tinglab tushunish va talaffuzni rivojlantirish (Duolingo va Memrise platformalari).
4. Yozma nutqni rivojlantirish (sahnalashtirish, dialog o'yinlari).[3,97]

Tarjima kompetensiyasi va gamifikatsiya. Tarjima kompetensiyasi bir necha tarkibiy qismlardan iborat:

1. Lingvistik kompetensiya - til tizimini mukammal bilish;
2. Madaniy kompetensiya - milliy madaniy kontekstni anglash;
3. Strategik kompetensiya - tarjima jarayonida to'g'ri strategiyalarni tanlash;
4. Texnik kompetensiya - zamonaviy vositalardan foydalanish (CAT, onlayn lug'atlar).

Gamifikatsiya bu kompetensiyalarni quyidagi tarzda rivojlantiradi:

Rol o'yinlari - o'quvchi tarjimon, tahrirchi yoki mijoz rolini bajaradi;

Simulyatsiyalar - real tarjima jarayonlari modellashtiriladi;

"Error hunt" o'yinlari - tarjima xatolarini aniqlash va to'g'rilash;

“Reverse translation” - tarjimani ikki yo‘nalishda bajarish orqali aniqlikni oshirish.

Tarjima jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan gamifikatsiya metodlari:

1. Kahoot-based Vocabulary Game

Talabalar kahoot orqali tezkor savol-javob asosida lug‘atlarni musobaqa shaklida o‘rganadi. Ballar, vaqt cheklovi va reyting mavjud.

2. Quizlet Flashcard Game

Quizlet platformasi orqali “Match”, “Gravity” kabi o‘yinlar yordamida tarjima va lug‘at o‘rganish gamifikatsiyalashgan.

3.HMH Classcraft

Bu talabalar va o‘qituvchilar uchun xatti-harakatlar va o‘rganish platformasi sifatida ishlaydigan o‘yin. Bu butun sinfni rol o‘ynash formatiga kiritish uchun ko‘p o‘yinchi bo‘lgan fantaziya uslubidagi o‘yin shaklida keladi. Tarjima jarayonini rollarga kirib o‘yinlashtirish orqali qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Xulosa

Tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirishda gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish eng zamonaviy va yuqori samara beruvchi yondashuvdir. Gamifikatsiya o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi, tarjima mashg‘ulotlarini ijodiy jarayonga aylantiradi, iste‘dod va kompetensiyalarni chuqur shakllantiradi. O‘rganilgan ilmiy manbalar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya o‘quvchilarning faolligini oshiribgina qolmay, balki ularning tilda erkin muloqot qilishiga ham yordam beradi. An‘anaviy metodlarga qaraganda o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar ko‘proq esda qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Burhanova N. A. Chet tili o'qitish jarayonida gamifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Ta'limda innovatsiyalar jurnali, 2021
2. Bakirova, H. (2021). Typology of methodological and linguistic difficulties in the formation of lexical competence. ACTA NUUZ
3. Karimova, M. & Matyakubova, S. Gamifikatsiya orqali tarjima kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari. Oliy ta'limda innovatsiyalar ilmiy jurnali, 2023.
4. Qodirova D. Sh. Gamifikatsiya usulining til o'rganish motivatsiyasiga ta'siri. Filologiya va ta'lim, 2022.
5. Abdullayeva S.Y. Gamifikatsiya metodining chet tilini o'qitish va tarjima kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ro'li.